

## ANDIJONDAGI JADIDCHILIK HARAКATI TARIXI

Abdulxayev Elyorbek Kaxramonjon o'g'li

Andijon iqtisodiyot va qurilish instituti stajyor-o'qituvchisi

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada jadidchilik harakati paydo bo'lishi, bu harakat Andijonda ham jadidchilik shakllanish tarixi, Andichonlik jadidlarning faoliyati, qo'zg'alonlar, aholi dunyoqarashini o'zgartirishga qilgan harakatlar va jadidchilik harakatini bugungi globallashuv sharoitida o'rganish muhurligi haqida gap boradi.

**Kalit so'zlar:** Jadidchilik, jadidlar, vatanparvarlik, ma'rifatparvarlik, ilm, dunyoviy ta'lim, teatr, matbuot, mustaqillik.

**Аннотация:** В данной статье говорится о возникновении движения джадидизма, истории формирования джадидизма в Андижане, деятельности андижанских джадидистов, восстаниях, усилиях по изменению мировоззрения населения, а также о важности изучения движения джадидизма в Андижане. контексте сегодняшней глобализации.

**Ключевые слова:** модернизм, патриотизм, просвещение, наука, светское образование, театр, пресса, независимость.

**Abstract:** This article talks about the emergence of the jadidism movement, the history of the formation of jadidism in Andijan, the activities of the jadidists from Andijan, uprisings, efforts to change the worldview of the population, and the importance of studying the jadidism movement in the context of today's globalization.

**Keywords:** Jadidism, modernism, patriotism, enlightenment, science, secular education, theater, press, independence.

**Kirish:** Davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev 2023-yil 22-dekabr Ma'naviyat va ma'rifat kengashi yig'ilishida O'zbekiston mafkuraviy sohada raqobatga tayyormi, degan savolni berdi. Uning aytishicha, mamlakat madaniy dujplomatiyani kuchaytiradi. Shuningdek o'zbek xalqi jadidlar ko'rsatgan yo'ldan og'ishmay borishi kerakligi ta'kidlandi. Uning ta'kidlashicha, ijtimoiy tarmoqlar orqali asosan chetdan, ba'zan hatto mamlakatning o'zida ham Konsitutsiya va qonunlarga zid pozitsiyalar ilgari surilayotgani, jumladan, diniy e'tiqot niqobi ostida yoshalarni ma'rifatga emas, jaholatga undash holatlari paydo bo'lmoqda.

“Mamlakatimiz o'z taraqqiyotining yangi, yuksak bosqichiga kirayotgan hozirgi paytda bizga jadid bobolarimiz kabi g'arb ilm-fan yutuqlari bilan birga, milliy qadriyatlar ruhida tarbiya topgan yetuk kadrlar suv bilan havodek zarur”.<sup>1</sup>

Demak bugungi globallashuv sharoitida biz ma'naviy tahdidlarga qarshi tura olishimiz uchun bizga meros bo'lib qolgan ma'rifatparvar jadid bobolarmizni ilmiy meroslarini o'rganishimiz va kelgusi avlodga ham yetkazishimiz zarur. Chunki Jadid bobolarmizni qilgan ishlari va bizga qoldirgan meroslari biz uchun juda muhim.

**Asosiy qism:** XIX asr oxiri XX asr boshida Turkiston, Kavkaz, Qirim, Tatariston hayotida muhim ahamiyat kasb etgan ijtimoiy-siyosiy, ma'rifiy harakat. XX asrning 90-yillarida O'rta Osiyoda tarqaldi. Jadidlar asosan adolatsizlik, huquqsizlik, ilmsizlik va sovet mustamlachiligiga qarshi kurashishgan va bu yo'lda ko'plab jadid bobolarimiz nohaq ayblanib qatag'on qurboni bo'lishgan.

Andijonlik jadidlarning bu ma'rifatparvarlik harakatiga ulkan xissa qo'shishgan. Xususan Andijonlik jadidlar haqida gap ketganida 1916-1918-yillarda qizg'in faoliyat ko'rsatgan yozuvchi Cho'lpon, Abdurahim Yusufzoda, huquqshunos Ubaydulla Asadullaxo'jayev, Mulla Muhiddin maxdum

<sup>1</sup> Sh.Mirziyoyev Respublika Ma'naviyat va ma'rifat kengashi yig'ilishi nutqidan. Toshkent.2023.

a'lam mullo Muhammad, Mudarris Mullo Boqi oxund domullo Odilboy o'g'li, Mulla Nuriddin a'lam Yo'ldoshxo'ja eshon o'g'li, Mulla Muhammadjon boyvachcha Kamoljonboyev, Mirzo Abdulqodirbek Mirzoahmad Qushbegiyev<sup>2</sup>, milliy burjuaziyaning tipik vakili Ahmadbek xoji Temirbekovlar va yana boshqa ko'plab jadidlarni misol qilib keltirishimiz mumkin.

Aksariyat asarlarda jadidlar 1916-yilgi xalq qo'zg'aloniga salbiy munosabatta bo'lganlar, shu bois ular chor hukumatining mardikorlikka olish siyosatini qo'llab-quvvatlab chiqqanlar fikr bayon etilgan. Biroq bir talay hujjatlar, ma'lumotlar, aslida, bunday bo'lmaganidan guvohlik berib turibdi.

Andijondagi unutilmas iyul kunlarida nimaiki bo'lasa, ularning hammasi tasvirlanadi, so'ngi suhbatda ayanchli oqibatlariga olib kelgan holatlarning umumiy sabablari haqida ham gap boradi, chaqiruv munosabati bilan bog'liq ahvolga baho beriladi.

Jadidlar an'anaviy madrasalar tarmog'ini kengaytirish va ularda dunyoviy fanlar o'qitilishiga ham harakat qilganlar. Farg'ona vodiysining 4 ta yirik shahrida 100 ga yaqin shunday madrasalar borligi yozilgan edi. Andijondagi taraqqiyparvarlarning turli xildagi inqilobiy xatti-harakatlari chor ma'murlarining hujumiga duch kelishgan.

Bundan tashqari Andijon jadidlari matbuot orqali ilg'or fikr, xayirli ishlarni targ'ib etishda, salbiy, jirkanch holatlarni tanqid qilishda ham faollik ko'rsatishgan.

Andijondagi jadidchilik harakati haqida yana so'z ketarkan, 1917-yili Toshkentda G'ulomhasan Orifjonov bosmaxonasida litografiya usulida risola holida chop etilgan "Turk odami markaziyat firqasining maromnomasi" va "Turk odami markaziyat firqasining nizomnomasi" diqqatga sazovordir. Bu ikki hujjat 1917-yil sentabrda Toshkentda Turkiston o'lkasi musulmonlari III quriltoyida qabul qilingan va ularda bo'ljak mustaqil Turkiston xalq jumhuriyatining butun bir maqomi, tuzilmasi o'z ifodasini topgandi. Bu maromnoma va nizomnoma qonunlarini birlashib yozgan 14 ulug'zotlardan 5 nafari andijonliklar edi.

Qoloqlik va jaholat, aholining ayanchli ahvoli, Turkistonning jahon sivilizatsiyasidan orqada qolib ketishi, islom va shariatning oyoqosti qilinishi va bunday og'ir va fojiali hayotdan qutilish, erk va ozodlikka erishish haqida o'z zamonasining ilg'or kishilarida fikr-mulohazalar paydo bo'lgan. Xullas, jaholat uyqusidan uyg'onish tarixiy zaruriyatga, rivojlanishning ob'yektiv talab va ehtiyojiga aylangandi.

Jadidchilik ulkan ijtimoiy-siyosiy oqim, harakati edi. O'lkada millatning dard-alamlarini, ayanchli qismatini o'z qalbi va vujudidan o'tkazib, o'zining butun borlig'ini, aql-u zakovatini, ongli hayotini erk, ozodlik, taraqqiyot uchun safarbar etgan ziyolilarning butun bir yangi avlodi shakllangandi. Ana shu avlodning katta bir qismi Andijonimizda ham tarkib topdi.

Andijondagi "Yosh sart", ya'ni "Taraqqiyparvarlar" firqasining bag'rida yana bir yashirin siyosiy jamiyat yuzaga keldi. Andijon taraqqiyparvarlari butun Turkiston jadidlari kabi milliy, ijtimoiy istibdoddan qutulish, erkin rivojlanishiga erishish ma'rifat orqali amalga oshishni yaxshi anglaganlar. Ular ishni, eng avvalo, ma'rifatdan boshlab, keng xalq ommasini savodli qilishga, jaholat uyqusidan uyg'otishga intilib, yangi usuldagi jadid maktablari ochdilar. Samarqand, Toshkent, Qo'qondagi kabi bunday maktablar Andijonda ham ochildi. 1899-yili birinchi bor Andijondagi Shamsiddin domla tomonidan jaded maktabi ochildi. Bunday maktablar 1917- yili o'lkada 100 ga yetgandi. "Maorif havaskorlari" jamiyati, "Maorif" nashri tashkil etildi.

Andijon jadidlari rus demokratlari bilan hamkorlikda 1916-yil avgustda Andijonga kelgan Davlat Dumasi a'zolari, A.F. Kerenskiy boshliq vakillari oldiga butun Turkistonda bironta ham dunyoviy o'quv yurti yo'qligini e'tiborga olib Farg'ona vodiysida oliy o'quv yurti ochish masalasini qo'ydilar.

Andijonlik taraqqiyparvarlar firqasi tashkil etildi. Bu firqa milliy burjuaziya yordamiga tayanib rus demokratlari bilan ittifoq tuzib chorizm va uning mustamlakachilik siyosatiga qarshi kurash olib

<sup>2</sup> Shamsutdinov R., Xomidov D. Turkiston xalqining milliy qaxramoni Mahmudxo'ja Behbudiy Andijonda // Vodiynoma. 2019. № 2 (19). – B.56.

bordi. Taraqqiyparvarlar faoliyati mustamlakachi ma'murlar, maxfiy siyosiy politsiya, so'ngra Turkiston rayon muhofaza bo'limining xufiya hujjatlarida ma'lum ma'noda o'z ifodasini topdi.

Andijondagi "Yosh beklar", ya'ni "Taraqqiyparvarlar" firqasining bevosita ta'siri va yordami bilan "G'ayrat" nomli yana bir yangi jadidchilik jamiyati yuzaga keldi. Bu jamiyat Andijon shahridagi 1916-yil oktabr boshlatrida " Туркестанский голос" tahririyati rahbariyatida o'zbekcha matbuot organini nashr qilishga kirishmoqchi.

Andijondagi "Yosh sartlar", ya'ni "Taraqqiyparvarlar" firqasining bag'rida yana bir yashirin siyosiy jamiyat yuzaga keldi. Andijon taraqqiyparvarlari Toshkent, Qo'qonda chiqayotgan jadidlarda hamkorlik qilib turdilar. Bu borada Cho'lpon ijodini ko'rsatish mumkin.

**Xulosa:** Xulosa o'rni shuni takidlab o'tishimiz joizki davlatimiz tarixi va xalqimizning shonli o'tmishi yetuk olim, ziyoli va jamoat arboblari ismlari bilan to'la. Ular hamma vaqt xalqimizning yuksalishi, adolat, tenglik, eng asosiysi, ilm-ma'rifat uchun kurashgan. Zamonasining har qanday sinovlarini yengib o'tib, bu yo'lda jonini ham fido qilgan. Ularning hech bir faoliyati izsiz yo'qolmagan, ulardan qolgan ilmiy me'ros nafaqat yurtimizda, balki butun dunyodagi yirik universitetlar, kutubxona va ilmiy markazlar tomonidan tadqiq qilinmoqda, tengi yo'q qo'llanma bo'lib xizmat qilmoqda. Mustaqilik yillarida jadidlar hayotini o'rganishga bo'lgan qiziqish ortdi, xususan birinchi prezidentimiz I.Karimov tomonidan jadidlar xotirasini abadiylashtirish maqsadida quyidagi fikrlar keltirib o'tilgan: Turkistonda XIX asr oxiri – XX asr boshlarida yuzaga kelgan jadidchilik harakati Vatanimiz tarixida muhim sahifa ochdi. O'sha davrning eng ilg'or kuchlari sanalgan jadidlar bir zamonlar dunyo sivilizatsiyasiga ulkan hissa qo'shgan o'lka jahon taraqqiyotidan ortda qolayotganini teran his qilib, jamiyatni tubdan isloh etishga intildilar. O'lkani mustamlaka kishani hamda asriy qoloqlikdan ozod etish, mazlum xalq qalbiga ma'rifat ziyosi va erk tuyg'usini singdirish, jamiyatga baxt yo'lini ko'rsatish ma'rifatparvarlarning bosh maslagi edi. Behbudiy, Munavvarqori, Fitrat, Qodiriy, Cho'lpon, Avloniy kabi o'nlab hur fikrli taraqqiyparvarlar ana shu ezgu maqsad yo'lida fidokorona kurashdilar. Sh. Mirziyoyev tomonidan jadidlar xotirasini abadiylashtirish maqsadida ko'plab ishlar ammalga oshirildi. Jumladan 2023 – yilda 11 – dekabr kuni Toshkent shahrida "Jadidlar: o'zlik va davlatchilik g'oyalari" mavzusida Ilmiy konferensiya yuqori darjada tashkil etildi, unda turk dunyosining yetakchi olimlari Turkistonda taraqqiy etgan jadidchilik harakati haqida o'z ma'ruzalari bilan qatnashdilar. Mamlaktimizda 2024 – yil 1 – yanvardan boshlab "Jadid" nomli yangi Gazeta tashkil etildi.

Andijonlik jadidlar faoliyatiga oid bu kabi hujjatlar, o'rganilmagan mavzu, voqealar juda ko'p. Ularni to'la-to'kis o'rganish, jamlash, umumlashtirish, bir so'z bilan aytganda, Andijondagi jadidchilik harakati tarixini tadqiq etish bugungi kunning dolzarb masalalaridan biridir

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Shamsutdinov.R.R Qatag'on qurbonlari xotira kitobi Toshkent Akadem nashr 2021
2. D. Alimova. Jadidchilik fenomeni. Toshkent Akadem nashr 2022.
3. N. G'ofurov. Jadidchilik tarixi o'quv uslubiy qo'lanma. Namangan – 2023.
4. R. Shamsutdinov, Sh. Karimov, O'. Ubaydullayev. Vatan tarixi «Sharq» nashriyot – matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati. Toahkent – 2010.
5. U. Dolimov. Is'hoqxon To'ra Ibrat. Yoshlar nashriyot uyi. Toshkent – 2022.
6. D. Quronov. Abdulhamid Cho'lpon. Yoshlar nashriyoti uyi. Toshkent – 2022.